

## Akademik Aziz Qayumov va mumtoz adabiyotshunoslik

2021-yil 2-iyun kuni atoqli olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori Azizxon Po'latovich Qayumov tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan "Akademik Aziz Qayumov va mumtoz adabiyotshunoslik" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman bo'lib o'tdi.



Anjuman O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi tashabbusi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi hamkorligida tashkil etildi.

**Vengriya Fanlar Akademiyasining  
Kutubxonasi**

E-L-T-E

• József Teleki tomonidan tashkil etilgan  
• Sharq kitoblari kollektysiysi 1951 yilda  
tashkil etildi/Kitoblar va qo'lyozmalar shart  
tillarida



Anjuman onlayn va oflaysida o'tkazildi. Unda O'zbekiston, Vengriya, Tojikiston, Ozarboyjon va Qirg'iziston mamlakatlaridan 50 dan ortiq mutaxassis olimlar ishtirok etishdi. Jumladan, O'zbekistondan taniqli olimlar Jabbor Eshonqulov, Zokirjon Mashrabov, Boqijon To'xliyev, Hamidulla Boltaboyev, Nusratullo Jumaxo'ja, Sultonmurod Olim, Otabek Jo'raboyev va Qodirjon Ergashev, vengriyalik Benedek Peri, tojikistonlik Baxtiyor Fayzulloyev, ozarboyjonlik Olmos Ulviy, qirg'izistonlik Barno Isaqova kabi olimlarning ma'ruzalari qiziqish bilan tinglandi. Akademik A.Qayumovning nafaqat o'zbek fani, balki jahon adabiyotshunosligida tutgan o'rni va ibratlari umri ma'ruzalar hamda chiqishlarda yoritib berildi.